

**TO‘Y VA FARZAND BILAN BOG‘LIQ IJOBIY ISTAK MAZMUNLI
BIRLIKLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI**

*Melibayeva Sohibaxon Adhammirza qizi
Alisher Navoiy nomidagi TDO ‘TA
Universiteti magistranti*

Kalit so‘zlar: ijobiy istak mazmunli birliklar, toy bilan bogliq birliklar, fazand bilan bogliq birliklar, milliy madaniyat, urf-odat, istaklar, she’riy ohang

Key words: meaningful units of positive desire, units related to wedding, units related to fertility, national culture, tradition, wishes, poetic tone

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalqi hayotining ajralmas qismi, milliy urf-odatlari asosiga qurilgan to‘y, xalqimizning farzand bilan bog‘liq ijobiy istak mazmunli birliklarning miliy-madaniy xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan. Bu kabi tushunchalar bilan birga qo‘llanuvchi istaklar misollar yordamida tahlil etilgan.

Abstract. In this article, opinions are expressed about the national and cultural features of the wedding, which is an integral part of the life of the Uzbek people, based on national traditions, and meaningful associations of our people with a positive desire for a child. The positive wishes used along with such concepts are analyzed with the help of examples.

Ijobiy istak birliklari tematik jihatidan juda rang-barang bo‘lib, o‘zbek xalqi hayotining deyarli barcha jabhalarida faol qo‘llanadi. Bu, albatta, xalqimizning milliy madaniyati va qadimiy xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liqdir. Bularning deyarli barchasida aytildigan istak, olqish va niyatlarimiz bevosita milliy madaniyatimizdan kelib chiqqan deyish mumkin. Shulardan aynan o‘zbek xalqining to‘y bilan bog‘liq ijobiy istak birliklarining milliy madaniyatimizga xos o‘rinlarini ko‘rib o‘tamiz. Shu o‘rinda to‘y bilan bog‘liq istaklarni ikki xil holatda namoyon bo‘lishini aytib o‘tishimiz kerak. Birinchisi, to‘y marosimi bilan bog‘liq bo‘lib, aynan to‘yning qaysidir marosimida to‘y egalari, to‘y sababchilari uchun aytildigan ijobiy istak mazmunidagi birliklar. Ikkinchisi esa to‘y marosimi vaqtida aynan to‘y marosimini yoki undagi xursandchilikni kimgadir tilash uchun aytildigan ijobiy istak birliklari. Ikkinchi turdag'i ijobiy istak birliklari bevosita to‘y jarayoni bilan bog‘liq emas.

Xalqimiz orasida to‘y marosimlariga aloqador olqishlarning ajoyib namunalari uchraydi. Ularning mazmunini to‘yning xarakteri belgilab turadi. Beshik to‘ylarida chaqaloq sharafiga, sunnat to‘ylarida to‘y bolaga, nikoh to‘ylarida kelin-kuyovga qarata olqishlar aytildi.¹ O‘zbek xalqi hayotida to‘y va u bilan bog‘liq urf-odatlar, turli ijobiy istak va niyatlar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, kelin-kuyovlar uchun

¹ Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –Toshkent: Musiqa.– 2010. 158-bet.

“Omin, qo’shgani bilan qo’sha qarisin, uvali-juvali bo’lishsin, ollohu akbar” deya alqansa, to‘y bolaga “Omin, to’ylarga yetishtirsin, to‘y bolaning umri uzoq, to‘rt muchasi sog‘ bo‘lsin, katta kishi bo‘lib yursin, ollohu akbar” deya yaxshi istak bildiriladi. Yosh bolalar uchun aytildigan olqishlar mazmunan kengligi bilan ajralib turishi va bolalarga aloqador turli marosimlarning verbal qismi sifatida namoyon bo‘lishini O.Safarov batafsil tahlil qilgan.

O‘zbek xalqida to‘ylarning turli xil ko‘rinishi bo‘lgani kabi, o‘z navbatida har qanday to‘y turining o‘ziga yarasha urf-odatlari ham mavjud bo‘lib, ularning barchasida ijobjiy istak birliklari doimiy faol qo‘llanadi. Bu urf-odatlarning barchasi o‘zbek tilida doimiy ravishda qo‘llanuvchi birliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Masalan: *Shu joylarda o‘sib-unib, tup qo‘yib, tomir yoyinglar.* (S.Ahmad) *Iloyo qo’shgani bilan qo’sha qarisin, o‘zidan ko‘paysin.* *Senlargayam yaxshi joylardan ato qilsin!* (O‘.Hoshimov) Tursunboy aka: - “*Baxtli bo‘linglar, singlim, qo‘scha qaringlar*” – deb kissasidan yigirma besh so‘mlik chiqardi. (O‘.Hoshimov) *Iloyo umring uzoq bo‘lsin, baxtli bo‘l!* *Insofli – tovfigli bo‘l, mehnatkash bo‘l!* (O‘.Hoshimov) *Uvali-juvali bo‘linglar, tup qo‘yib, palak yozinglar, qo‘scha qaringlar!*! (So‘zlashuvdan) *Hayot yo‘ling doimo nurli va charog‘on bo‘lsin, nomingga dog‘ tushmasin, serfarzand, serdavlat bo‘lgin, topganing o‘zingga buyursin, bolam!*! (R.Ochil) *Olti urug‘ning oshini bersin, Luqmoni Hakimning yoshini bersin, qushday qanot quyib bersin, tog‘day uyib bersin.* (So‘zlashuvdan) *Iloyo borgan joyida tinib-tinchisin, o‘zidan ko‘paysin, qo‘scha qo‘scha o‘g‘il-qizlar bersin, boshi to‘ydan chiqmasin.* (So‘zlashuvdan)

O‘zbek xalqi to‘y-tomoshalar, xalqqa osh berish, o‘yin-kulguni sevuvchi xalq. Aynan xalqimizda “*topganing to‘ylarga buyursin*” deya niyat va istaklar bildiriladi, olqishlarga, albatta, shu ijobjiy istak mazmunidagi birlik birgalikda aytildi. Bu bilan o‘zbek xalqining milliy madaniyatining asosiy va ajralmas qismi bo‘lgan to‘y marosimlari nazarda tutiladi. Bundan tashqari “to‘y” so‘zi ma’lum bir marosim ma’nosidan tashqari xursandchilik, o‘yin-kulgu ma’nosida umumiylashgan ma’no ham kasb etadi. Ya’ni, *topgan mol-davlating faqat xursandchiliklar uchun, o‘yin-kulgular uchun buyursin* kabi ma’no ham anglashiladi. Bu bilan to‘y so‘zi ma’nosi kengaygandir. To‘y birligi ma’nosida yana “*boshing to‘ydan chiqmasin*” deya keng qo‘llanilib keluvchi ijobjiy istak mazmunidagi olqish, niyat ham aynan o‘zbek xalqining milliy madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Bu kabi ijobjiy istak birligi ham yuqoridagi “*topganing to‘ylarga buyursin*” olqishi kabi ma’lum bir marosim ma’nosini anglatuvchi to‘y ifodasi va umumiy ma’noda xursandchilik, quvonch, o‘yin-kulgu ma’nolarini ifodalaydi.

Ijobjiy istak birliklari xalqimiz tomonidan shu darajada mahorat bilan aytildiki, hattoki ma’lum bir qolipga kelib qolgan, she’riy ohangga tushib qolgan olqishlarimiz ham salmoqli. Bunga sabab bu janrga folklor nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, juda qadimiy davrlarga borib taqaladi va og‘izdan og‘izga o‘tgan sari ommalashib,

ohangdorlashib borgan. Bu kabi olqishlar gender nuqtayi nazaridan tahlil qilinsa, ayollar nutqida uchraydi. Masalan:

*So 'yganingiz qo 'y bo 'lsin,
Ko 'rganingiz to 'y bo 'lsin.*

Yuqoridagi ijobiy istak mazmunidagi birligimizda ham o'zbek xalqining to'y marosimlarini sevuvchi va bu xalq hayotida bunday an'analar qadim zamonlardan tomir otib bo'lgani ifodasini, to'y (xursandchilik, o'yin-kulgu) hayotimiz bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rindi.

Ularning aksariyati she'riy ko'rinishdagi aytim-olqishlardan iborat, ular bolani beshikka belanayotganda yoki beshikdan yechib olayotganda, bolaning tishi chiqqanda, ilk bor sochini yoki tirnog'ini olganda, birinchi qadamini tashlaganda va boshqa shunga o'xshash vaziyatlarda chaqaloqqa uzoq umr, farovon rizq, baxtli kelajak tilash maqsadida ijro etiladi. "*Sariq tishlik bo 'lsin, oqsochlik bo 'lsin, umri uzun, rizqi butun bo 'lsin*" deya niyat bildiradi. Xullas, inson o'zining muayyan faoliyatining boshlanishida ham, yakun topishida ham olqish aytadi. Shakliy ixchamlik, mazmunan muayyan maqsad sari izchil yo'nalganlik olqishlarga xos muhim janriy belgilardan sanaladi. Ko'pincha sa'jlangan so'zlar yordamida olqishning mazmuni ta'sirchan qilib ro'yobga chiqariladi. Sa'j va alliteratsiya (tovushlar takrori) olqishlarda eng ko'p qo'llanadigan ifodaviy vositalardir. Ularning ayrimlarida go'zal tashbehtar uchraydi. Xalq o'rtasida ko'pincha fotiha, duo deb yuritiladigan olqish janri o'ziga xos gumanistik ruhi, yuksak ko'tarinki pafosi va hamma vaqt insonga yaxshi istaklar tilash maqsadini ifodalashi tufayli folklorning boshqa janrlari orasida alohida o'rin egallaydi. Olqishlar ma'lum hayotiy ehtiyojlar tufayli vujudga kelgan. Ular, asosan, nasriy ko'rinishda yaratilgan. Individual ijro xususiyatiga ega. Uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan.

Xalqimiz qadim zamonlardan bolajon xalq. Boshqa ko'plab madaniyatlardan ajralib turuvchi o'ziga xos jihatlardan eng asosiyalaridan biri ham shu xislat xalqimizning qon-qoniga singib ketganidadir. Nikoh to'yi bilan bog'liq holda oila qurgan yoshlarga baxtli hayot tilash bilan birga, yaxshi farzandlar ko'rish, ularni voyaga yetkazish va farzandlari rohatiga sazovor bo'lishlari haqida tilak bildiriladi.

O'zbek oilasi azaldan serfarzand bo'lishni orzu qilgani tufayli, yangi oilaga serfarzand, serdavlat bo'lish istagi bog'liq holda turli xil ijobiy istaklar bildiradilar. *Masalan: Ilohi omin, serfarzand – serdavlat, baxtli – omadli bo 'lib, qatorlaringdan xato bo 'lmay yashash nasib qilsin!* Aksariyat ijobiy istaklarimiz duo ko'rinishida bo'lib, *iloho omin* deb boshlanuvchi nutqiy qolip holiga kelib qolgan birliklar bilan boshlanadi. Ushbu tilak orqali xalqimizga xos bo'lgan serfarzandlilik, farzandlarning boylik ekanligi, ya'ni boylikni mol-davlatdan ko'ra farzand bilan bog'lash holati yaqqol ko'rini turadi. Serfarzand bo'lish o'z-o'zidan serdavlat bo'lish ekanligiga ishora tarzda aytib o'tladi.

Yangi oila qurgan kelin-kuyovdan tortib barcha er-xotinlar uchun bildiriladigan ijobjiy istaklarimiz borki, ularda milliy madaniyatimiz, urf-odatlarimiz va xalqimizga, odamlarga xos bo‘lgan xususiyatlar o‘z aksini topgan bo‘ladi. *Qo ‘shganing bilan qo ‘sha qari, serdavlat, serfarzand bo ‘l deya tilak bildirilganda ham doimo tanlagan juftingga sodiq bo‘lib, bir umr u bilan mustahkam oila qurishlilik, ko‘pgina farzandlar ko‘rib, shu farzandlar orqali davlat, ya’ni boylikka ega bo‘lish, umr so‘nggida ham faqat shu turmush o‘rtog‘ing va farzandlaring bilan birga bo‘lishlilik nasib qilsin deya bildirilgan niyatlar ifodalanadi.*

Ilohi omin, o ‘g‘ling ko ‘kdagi yulduz bo ‘lsin, qizing yoqadagi qunduz bo ‘lsin, sizlar doimo izzatda bo ‘lib, ularning rohatini ko ‘rish nasib etsin. (Xalq og ‘zaki ijodi)

Omin, ota-onas sog‘-salomat bo ‘lsin, farzandlari ularning yuzini yerga qaratmasin! (So ‘zlashuvdan)

Shunday ijobjiy istak birliklari borki, xalqimiz orasida azal-azaldan qo‘llanilib, og‘izdan-og‘izga o‘tgan sari nasriy qofiya, ya’ni sa’j she’riy san’atiga aylanib qolgan. Ular xuddi she’r kabi ohangdorlikda aytildi. Shunday qofiyadosh tilaklarimizdan farzand bilan bog‘liq quyidagi misolni keltiramiz: *Qozon to ‘la osh bersin , Yostiq to ‘la bosh bersin. To ‘qqiz o ‘g‘il-u to ‘qqiz qizga bosh bo ‘linglar.* Bu yerda ijobjiy istak birliklarida gaplarning o‘ziga xos qurilishi bo‘lgan kesimi III shaxs buyruq-istik maylidagi fe’l bilan ifodalanishi kuzatiladi. Yostiq to‘la bosh bersin degan qismida bevosita farzandlarga ishora bo‘lib, sinekdoxa usulidagi ma’no ko‘chishini ko‘ramiz. Ya’ni qism orqali butun, inson tanasining bir qismi bo‘lgan bosh orqali butun bir insonni, bu o‘rinda farzandlarni nazarda tutilgan. To‘qqiz o‘g‘il-u to‘qqiz qizga bosh bo‘linglar deganda xalqimizning serfarzandliligiga ishora ko‘zga tashlanadi. Aynan to‘qqiz sonidan foydalanilgani sababi ham milliy madaniyatimizga dahldor bo‘lib, to‘qqiz soni sehrli sonlar qatoriga kiradi va juda ko‘plab xalq og‘zaki ijodi namunalarida, badiiy asarlarda shu son bilan bog‘liq holatlarni juda ko‘p ko‘rish mumkin. Bosh bo‘linglar jumlasida esa vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chganligini ko‘ramiz. Ijobiy istak birliklarini yuqoridagi kabi she’riy ohangdorlikka keltirib aytish gender xususiyatlari bilan ham bog‘liq bo‘lib, deyarli faqat ayollar nutqida kuzatiladi.

Bolalaringga bosh bo ‘l deya ijobjiy istak bildirilganda, milliy madaniyatimizga xos bo‘lgan yana bir jarayon: ota-onas va farzand o‘rtasidagi munosabatlar, ota-onas doimo farzandga o‘rnak bo‘lishi ifodalangan. Bolalaringga bosh bo ‘l deganda, bevosita umri uzoq bo‘lishi va doimo bolalari yonida o‘zi turishlilik nasib qilishi kabi tilak ham ifodalanadi. Yoshi katta otaxon va onaxonlar tomonidan yoshlarga shu tarzda niyatlar bildirishadi.

Xalqimizda farzandli bo‘lish uchun yoki farzand kutayotgan insonlar uchun *Qo ‘chqordek o ‘g‘il bersin* deya tilak bildiriladi. Bunda o‘g‘il farzand qo‘chqorga o‘xshatiladi va xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan turg‘un o‘xshatishni ko‘rishimiz mumkin.

O‘xshatishlar tashqi dunyoni bilishning eng qadimiy usullaridan hisoblanadi. O‘xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va tasavvurlarini tamsil etadi. Ularda ma’lum davrda yashagan ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari muhrlangan bo‘ladi. O‘xshatishlar har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo‘lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurga ko‘ra taqqoslash, qiyoslashdir.

Har xil lingvomadaniyatlardagi turg‘un o‘xshatishlarni qiyoslash insonning xarakteri va xatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlarning etaloni sifatida hayvon va jonivorlarni bildiruvchi so‘zlardan ko‘proq foydalanilganini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi ijobiy istakni bildiruvchi birligimizda ham aynan o‘g‘il farzandni qo‘chqorga o‘xshatilganligi milliy madaniyatimizga bevosita daxldor bo‘lib, boshqa hayvon yoki jonivorlar emas, aynan qo‘chqordan foydalanilgan. Qadimdan turkiy xalqlarda, o‘zbek xalq ertaklarida qo‘chqor afsonaviy jonivor sifatida aks etgan. Oq qo‘chqor qadimgi turkiy xalqlar tomonidan Ko‘k tangriga bag‘ishlangan qurbanlikdir. Turkiy xalqlarning ayrim sulolalari kuch-qudrat va alplikning ramzi bo‘lgan qo‘chqorni o‘zlariga gerb qilib olganlar. Shu sababdan ham turg‘un o‘xshatish hisoblanuvchi Qo‘chqordek o‘g‘il birikmasi o‘zbek xalqining ham milliy madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ilohim hech kimni tirnoqqa zor qilmasin. Ushbu farzand bilan bog‘liq ijobiy istak birligi aksariyat ijobiy istak birliklari kabi kesimi III shaxs birlikdagi buyruq-istik mayli shakli bilan ifodalanadi. Bu tilakda ham xalqimizning milliy madaniyatiga xos bo‘lgan bolajonlik va serfarzandlilik jihatlari o‘z aksini topgan. Ushbu birlikda sinekdoxa usulida ma’no ko‘chishi mavjud, ya’ni butun-qism munosabati ro‘y bergan. Qism orqali butun nazarda tutilgan. Inson qo‘lining qismi bo‘lgan tirnoq orqali butun bir inson, ya’ni farzand nazarda tutilgan. Bu birlik ham ijobiy istak birliklarida ma’lum bir qolip holiga kelib qolgan Ilohim so‘zi bilan boshlanadi va bu xalqimizning diniy qarashlarini o‘zida ifoda etadi.

O‘zbek xalqining milliy madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi serfarzandlilik, bolajonlilikni ijobiy istak mazmunidagi birliklar orqali o‘rganar ekanmiz, shu o‘rinda shunday istak, tilaklarimiz borki, oiladagi er-xotinga nisbatan faqat o‘zlaridan ko‘payib, farzandlar ko‘rishlariga niyatlar qilinadi. Masalan: *O‘zingdan ko‘pay, urug‘ingdan ko‘paygur* birliklari shular jumlasidan. Har ikkala ijobiy istak birligida farzand ko‘rishlilik, o‘zlaridan ko‘payishlilik niyat qilinadi. Urug‘ingdan ko‘paygur deganda -gur affaksi ijobiylik ma’nosini ifodalab keladi. -gur affiksli ijobiy istak birliklari, asosan, ayollar nutqida faol qo‘llanadi. Odatda, qarg‘ishni ifodalovchi -gur affiksli birliklarni bo‘lishsiz shaklida qo‘llash ayollar nutqi uchun xos bo‘lib, bunda ijobiy istak bildiradi: *basharang qurmagur, qurib ketmagur* kabi. Bu xil qurilmalarda salbiy istak ma‘nosi kuchsizlanib, neytral holdagi istak mazmuni ifodalanadi: *Ey, qurib ketmagur, nega*

indamading shu vaqtgacha? Basharang qurmasin, tezroq keta qolmaysanmi! (O‘.Hoshimov).

Teng qarib, teng xorinlar, uvali-juvali bo‘linglar. Ushbu ijobjiy istak birligi ham yosh kelin-kuyov uchun, er-xotinlar uchun ,asosan, yoshi kattalar tomonidan aytildigan tilak bo‘lib, er-xotinning doimo ahil-inoq yashashi, umrining oxirigacha birga bir butun oila bo‘lib yashashi va ko‘p farzand, nevara-chevaralik bo‘lishlari niyat qilinadi. Uvali-juvali so‘zining etimologiyasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin.

UVALI-JUVALI - “ko‘p mayda farzandli”, “nevara-chevarali”. *Ikki yoshning birgalikda uzoq umr ko‘rib, u v a l i - j u v a l i bo‘lishini tilab duo qilishdi.* Bu takror sifatning ikkinchi qismi birinchi qismi boshlanishiga j tovushi qo‘shib hosil qilingan; birinchi qism esa qadimgi turkiy tildagi “urug”, “oila”/ “uy-joy” ma’nosini anglatgan o:ba otaning oba shaklidan -li qo‘shimchasi bilan yasalgan; o‘zbek tilida o unlisi u unlisiga, b undoshi v undoshiga, a unlisi ä unlisiga almashgan, ï unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: oba + li = obalii > uvalii > uväli².

Ikki yoshning muhabbatli, uvali-juvali bo‘lishlariga duo qilishgach, sovchilarga zarrin to‘nlar kiydirildi. (A.Qodiriy, “O‘tgan kunlar”)

Buvi... uy sohibi O‘tamning serfarzand, uvali-juvali bo‘lishiga istak bildirdi. (H.G‘ulom, “Mash’al”)

Tolibjon ham uvali-juvali, xotin, bola-chaqasi bilan chiqib, boboni kuzatgani otlangan edi. (A.Muxtor “Chinor”)

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ijobjiy istak mazmunidagi birliklarga til va nutqning boshqa belgilariga qaraganda ko‘proq ijtimoiy milliylik xosdir. Jumladan, o‘zbek xalqi hayotining ajralmas qismi bo‘lgan to‘y va xalqimiz hayotining mazmunini tashkil etuvchi farzand tushunchalari bilan bog‘liq ijobjiy istak mazmunli birliklar o‘zida milliylikni aks ettiradi. Bu kabi tushunchalar bilan bog‘liq birliklarni o‘rganishda ularning leksik-semantik tomoni bilan birgalikda lingvokulturologik jihatini ham o‘rganish bunday birliklarni yana-da mukammalroq ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. —Т.: Ўқитувчи, 1990. —109 — 112-136 б.
- Ўзбек тилининг изоҳли лутати. Икки томлик. Иккинчи том. —М.: Русский язык, 1981. —715 б.
- Ҳайитова Ф. Никоҳ тўйи қўшиқларининг лисоний талқини. Филол. фанлари ғомзоди дисс. ... автореф. — Т., 1998. — 20 б.

a

f

a

² Ўзбек тилининг изоҳли лутати. Икки томлик. Иккинчи том. —М.: Русский язык, 1981. —715 б.